

**MAKTABGACHA TARBIYADA EKOLOGIK TA'LIM – BARQAROR RIVOJLANISH
VA ATROF- MUHIT MUSAFFOLIGINING ASOSIY OMILI**

Abdumavlanova Zilola Qodir qizi

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani

22- sonli DMTT tarbiyachisi

Ekologik tarbiya va ta'lim muammosi jamiyat taraqqiyoti davomida mavjud bo'lgan va mavjud bo'lib qoladi. To'g'ri ekologik ta'lim kelajakda insoniyatning ko'plab ekologik muammolarining oldini oladi. Har bir insonda tabiatga muhabbat, unga ongli, ehtiyotkor va manfaatdor munosabat bolalikdan tarbiyalanishi kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasasida jonli va jonsiz tabiat haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bilimlar tizimiga tayanadi. Bolani yoshligidanoq inson tabiatning ajralmas qismi ekanligini va tabiatning kelajagi ko'p jihatdan insonga, uning ehtiyotkor munosabatiga bog'liqligini tushunishga o'rgatish muhimdir.

Bugun insoniyatning tabiatga nisbatan salbiy munosabatlari oqibatlariga guvoh bo'lib turibmiz. Uzoq yillar mobaynida tabiatga yetkazilgan ta'sir oqibatida tabiiy muvozanatga putur yetdi. Bugungi kunga kelib esa, insoniyat tamadduni, uning ertangi taqdiri aynan shunday masalalarni hal etishni taqozo qilmoqda. Ayni chog'da ekologik muammolarni hal etishda tejamkor, ekologik toza texnologiyalarni joriy qilish, tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini izchil olib borish yoki sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish borasidagi sa'y-harakatlar ularni hal etishda yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning ekologik bilimlarini oshirish va madaniyatini yuksaltirish, atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, tabiat ne'matlarini kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash hissini shakllantirish antropogen ta'sirlarning oldini olishda asosiy omillardandir. Bunda ekologik ta'lim-tarbiyaning ahamiyati ham nihoyatda yuqori.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda barcha jabhalar qatorida ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida to'laqonli huquqiy-me'yoriy baza yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, shuningdek, boshqa qator hujjatlar ekologik ta'lim tarbiya tizimining huquqiy asosini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida tabiatni

muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya fanini o'qitishning majburiyligini ta'minlash mustahkamlab qo'yilgan. Shubhasiz, atrof-muhit musaffoligiga erishish va ekologik muammolarning oldini olishda aholining, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodning ekologik madaniyatini oshirish muhim ahamiyatga ega.

“O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA”gi 27.05.2019 yildagi 434-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorining “Oliy ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish” ga oid 6-bobida Oliy ta'lim tizimining bakalavriat va magistratura bosqichlarida ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo'yicha tegishli o'quv fanlari mazmuni kuchaytiriladi va qo'shimcha mavzular bilan boyitilishi nazarda tutilgan. Shuningdek, Noekologik yo'nalishlarda tegishli o'quv fanlariga ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid mavzular kiritiladi hamda ilm-fanda erishilgan yutuqlar, ekologiya va atrof muhit muhofazasiga oid yangi texnologiya va tadqiqotlar asosida muntazam yangilanib borilishi ta'kidlangan.

Shu maqsadda “Takomilashgan ilk qadam” dasturiga ekologik tarbiya ham qo'shildi va markazlarda faoliyatlar olib borilmoqda.